

Bolriq bo'yi davlati bilan hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi va Latviya Respublikasi "BAO" aksiyadorlik jamiyati o'rtasida o'zaro kelishuv Memorandumi imzolandi.





Ushbu Memorandum "VAO" AJ ning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarini kiritish yo'li bilan hamkorlik loyihalarini amalga oshirish orqali foydali qazilmalarni, jumladan, donador fosforitlarni qazib olish va qayta ishlash, texnogen hamda maishiy chiqindilarini qayta ishlash, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish imkonini yaratadi. Shuningdek, mablag'lar, mintaqada ma'dan va noma'dan minerallar uchun geologiya qidiruv ishlarini olib borish, cho'llanish va tuproq sho'rlanishining oldini olish maqsadida suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda mahalliy xom-ashyolardan qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar yaratilishiga yo'naltirilishi mumkin.